

Tilshunoslikda Lingvopoetikaning Tarixiy Ildizlari

Hamraqulova Guluzra Dilmuradovna¹

Annotatsiya: Lingvopoetika tadqiq xususiyatiga ko'ra fanlararo yo'nalish bo'lib, u o'zi qatori tutash fanlarning tushuncha va kategoriyalariga mos tushmaydigan o'ziga xos tushunchaviy apparatiga ega. Shu tushunchaviy apparati lingvopoetikani adabiyotshunoslikdan va uslubiyatdan farqlab turadi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, tushuncha, kategoriya, adabiyot, leksik ma'no, grammatik ma'no, so'z, so'z birikmasi.

Jadid adabiyotining yetuk namoyandasi, o'zbek ma'rifatparvar adibi A.Fitrat go'zal san'atlar ichida adabiyotning mavqeyi xususida fikr yuritar ekan, "Go'zal san'atlarda tovar (materiyal) tovush ohang bo'lsa, go'zal san'at musiqa bo'ladi; bo'yovlar, chiziqlar bo'lsa, rasm bo'ladi; tosh yo boshqa turli ma'danlar esa, haykalchilik bo'ladi; tosh, yog'och, kirpich, ganj, tuproq bo'lsa, me'morliq bo'ladi; tan, mug'a (muqom, mimika) harakatlari esa, o'yun (tans) bo'ladi; gap, so'z esa adabiyot bo'lishini" ta'kidlab, "Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqinlarni yaratmoq" ekanligini e'tirof etadi². Bundan ko'rinadiki, "birlamchi til unsurlari" ijodkor tomonidan badiiy asar yaratishda qo'llanilar ekan, ijodkorning maqsadi va mahoratiga bog'liq holda ikkilamchi, o'ziga xos qo'llanishga, mazmunga ega bo'ladi. Zero, "Til, uning birliklari badiiy adabiyotga olib kirilgunga qadar ham muayyan moddiy shakl va mazmun, ma'noning birligi sifatida mavjuddir. O'z leksik, grammatik ma'nosiga ega bo'lgan so'z, so'z birikmasi, gap kabi til birliklari yozuvchining badiiy maqsadiga bo'ysundirilgan holatda tegishli badiiy-estetik mazmunni yuzaga chiqarish, ifodalash uchun qo'llanadi. Shu tariqa avvaldan ma'noga ega bo'lgan til birliklari badiiy asarning lisoniy to'qimasini shakllantirar ekan, ular ijodkorning badiiy mahoratiga uyg'un ravishda yana yangi, o'ziga xos badiiy ma'no-mazmunlarni inkishof qiladi"³. Bu esa ijodkor qo'lida ikkilamchi qo'llanishga ega bo'lgan bunday lisoniy unsurlarni alohida tekshirish zaruratini tug'diradi. Bu zarurat alohida fan tarmog'ining – lingvopoetikaning maydonga kelishiga sabab bo'ldi.

Tilshunoslikda lingvopoetikaning tarixiy ildizlari ancha qadimiydir. Tadqiqotchilarning ayrimlari lingvopoetikaning ildizini Arastuga bog'laydilar hamda o'zlarining fikrlarini "Poetika" orqali dalillaydilar. Bizning fikrimizcha, ushbu fikr ko'proq atama nuqtayi nazaridan to'g'ri, zero, insoniyat paydo bo'lgandan buyon til va adabiyot uyg'unlikda yashaydi. Ibtidoiy odamlarning tasviriy san'atga, musiqaga bo'lgan dastlabki bilimlari ham lingvopoetik olamning hamisha mavjudligining dalilidir. Umri davomida ijod qilib she'r yozmagan ayol ham ilk ona bo'lgan lahzasidanoq alla to'qiydi. Dilbandiga bo'lgan mehrini sehrli so'z – alla orqali ifodalaydi. Umrining asosiy qismini janglarda o'tkazgan Bilga xoqon, Tunyuquqlar-chi? Nega ular so'zga bunchalar usta bo'lishgan?! Sababi, lingvopoetika har qanday lisoni bor shaxsda mavjud bo'lgan va ma'lum tabaqa, soha bilan chegaralanmaydigan tilshunoslikning muhim yo'nalishidir.

Lingvopoetikaning adabiyotshunoslikdan farqi shundaki, adabiyotshunoslikda asosiy e'tibor badiiy asarning mazmuniy va kompozitsion tuzilishiga qaratilgani holda, uning lisoniy xususiyatlarini tadqiq etish yetakchi hisoblanmaydi. Lingvopoetik tadqiqotlarda badiiy asarning mazmuniy va kompozitsion xususiyatlarini inobatga olgan holda lisoniy qonuniyatlar asosida ish ko'riladi.

Lingvopoetikaning uslubiyatdan farqi esa quyidagilarda ko'rinadi:

¹ Andijon davlat pedagogika instituti, PhD

² Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 12.

³ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 7.



uslubiyat bilan bog‘liq tadqiqotlarda, asosan, badiiy asarlardagina emas, balki barcha matnlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan uslubiy holatlarning tavsifi keltiriladi;

stilistik tadqiqotlarda ingerent konnotatsiyaga ega yoki ega emasligi bilan farqlanuvchi lisoniy birliklar tavsiflanishi yoki shu lisoniy birliklarning nutq jarayonida qo‘llanilishi, ya‘ni uslubiy betaraf, neytral birlikning adgerent (yordamchi) konnotatsiyaga ega bo‘lib qolish xususiyatlari tahlil etilishi mumkin. Lingvopoetikada esa yuqorida keltirilgan uslubiy ko‘rsatkichlarning matn mazmuniy xususiyatlari bilan bog‘liq holdagi talqiniga e‘tibor qaratiladi.

Tilning an‘anaviy va sistem-struktur tilshunoslikni o‘rganish obyekt sifatidagi vazifasidan tashqari yana bir vazifasi ham borki, bu lingvopoetikani o‘rganish obyekt ekanligidir. Lingvistik poetika tilshunoslikning alohida bo‘limi hisoblanib, tilning ta‘sir etish, badiiy estetik va konnotativ funksiyalarini ham o‘z ichiga oladi. Badiiy adabiyotning asosiy vositasi badiiy nutq hisoblanadi. Adabiyotning tasviriy vositasi so‘z sanaladi. Badiiy so‘z adabiyotning muhim qurolidir.

Jahon tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar, xususan, badiiy asar tili asosida lingvopoetik tahlillar ko‘plab amalga oshirilgan. R.Yakobson, R.A.Budagov, V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, D.N.Shmelev, G.V.Stepanov kabilar poetika borasida ilmiy tadqiqot olib borib, lingvopoetik fikrlarni ilgari surganlar. O‘zbek tilshunosligida lingvopoetikaning rivojiga X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo‘chqortoyev, M.Yo‘ldoshev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, S.Karimov kabilarning xizmatlari beqiyos. Bugungi tilshunosligimiz diqqat markazida turgan yana bir masala zamonaviy adabiyotimiz ijodkorlarining asarlarini lingvopoetik tahlil qilishdan iborat⁴. Zero, "...farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy- ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur"⁵.

Badiiy asar lingvopoetikasi masalalari bilan shug‘ullangan M.Yo‘ldoshev o‘zbek tilshunoslaridan I.Sultonov, A.G‘ulomov, Sh.Shoabdurahmonov, G‘.Abdurahmonovlarning badiiy asar tili tahlili yuzasidan olib borgan izlanishlari natijasida chiqarilgan xulosalarni quyidagicha izohlaydi:

1. Badiiy asar tili uning mazmun tahlili bilan barobar olib borilishi zarur.
2. Har qanday badiiy asar tilini o‘rganish va u haqida hukm chiqarish uchun yozuvchi yashagan davr, tarixiy sharoit, asarning yozilish sababi va jarayoni, yozuvchining maqsadi chuqur o‘rganilishi lozim.
3. Badiiy asar tili yozuvchining boshqa asarlari tili bilan muqoyasa qilingan holda o‘rganilishi kerak.
4. Badiiy asarda qo‘llanilgan birliklarni tematik, semantik-stilistik, grammatik, tarixiy-genetik jihatdan turkumlash va asarning maxsus lug‘atini ishlab chiqish lozim.
5. Yozuvchining jonli xalq tilidan hamda traditsion adabiy tildan qanday foydalanganini aniqlash va asarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish kerak.
6. Yozuvchining tasviriy vositalardan foydalanish mahoratini belgilash.
7. So‘z ma‘nolarining o‘zgarishini aniqlash.
8. So‘zning semantik guruhlarining asarga olib kirilishini o‘rganish.
9. Asarning sintaktik strukturasi bilan bog‘liq kuzatishlarni olib borish.
10. Nutqiy stil va stilizatsiya muammolarini tadqiq qilish"⁶.

Ko‘rinadiki, badiiy matn tahlilida lingvistik va stilistik tahlillar bir-birini to‘ldirib boradi. Ularni tamomila bir-biridan ajratish mumkin emas.

⁴ Otaqulova A. Sirojiddin Sayyid lingvopoetikasida takrorlarning o‘rni. – Innovations in Technology and Science Education, 2023 – humoscience.com (murojaat sanasi: 27.05.2022.)

⁵ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент. Ўзбекистон, 2017. – Б.17.

⁶ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.13.



Berilgan xulosalarga tayangan holda ta'kidlash lozimki, lingvopoetik tadqiq metodlari alohida olingan poetik matnlarning va benazir stilistik markerlangan asarlarning tahlili asosida shakllantirib boriladi. Xususan, O.S.Axmanova va V.Ya.Zadornovalar tomonidan badiiy matning uch bosqichli tahlili taklif etilgan bo'lib, unda badiiy asarning xususiyydan umumiyga qarab boruvchi semantik, metasemiotik va metametasemiotik tahlil usullari ajratiladi.

